

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL
IYUN/6-SON, IV-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

EPOKSID-DIAN VA FENOLFORMALDEGID GIBRID BOG'LOVCHISI ASOSIDA YUQORI YEYILISH VA KORROZIYABARDOSH ANTIFRIKSION QOPLAMALAR YARATISH	10
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI BOSHQARISH VA TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	16
Mamayusupova Dilovarxon, Maxmudaliyeva Manzuraxon, Toyirjonov Shokirjon	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI.....	20
Ma'rupova Gulnoz	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ХРАНЕНИЯ ПЛОДОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	24
Муратов Абдулазиз Уктамович	
DIGITAL TRANSFORMATION AND EMERGING TRENDS IN INFORMATION TECHNOLOGY.....	29
Daminova Barno, Esmurodova Zarnigor, Boltayev Javohir, Kuziboyeva Lobar	
FRANSUZ, RUS VA O'ZBEK TILLARI SPORT TURIZMI TERMINLARINING LEKSIK-SEMANTIK VA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI.....	34
Ma'rupova Gulnoz Umarjonovna	
MINTAQA IQTISODIY O'SISHIDA XIZMATLAR SOHASI TARKIBIY O'ZGARISHLARINING STATISTIK TAHLILI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA	38
Raximov Alisher Ibragimovich	
KREDIT SKORINGIDA XULQ-ATVOR OMILLARINI BAHOLASH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO'LLANILISHI	45
BekmurodovAbbos Amiriddinovich	
ECONOMETRIC INVESTIGATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION ACTIVITIES IN KARAKALPAKSTAN REPUBLIC.....	49
Makhambetova Uringul Reimbaevna	
GETEROKOMPOZIT POLIMER QOPLAMALAR SIRTINING SHAKLLANISHI VA ULARNING PAXTA TOLALARI SIFATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH	55
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
GRADIENT BOOSTING (XGBOOST) VA TEGISHLILIK FUNKSIYALARIGA TAYANGAN STATISTIK KLASSIFIKATSIYA USULINING SOLISHTIRMA BAHOLANISHI	62
Ergasheva Ma'mura Gayratovna	
QURILISH SOHASIDA KICHIK VA YIRIK BIZNES SUBYEKTLARI INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	69
Axmedova Nilufar Shuxratovna	
LARAVEL PLATFORMASIDA NEYROTARMOQLARNI QO'LLASH ORQALI FOYDALANUVCHI XATTI-HARAKATLARINI BASHORAT QILISH VA TAVSIYA TIZIMLARINI YARATISH	74
Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Maxkamov A'zimjon, Nabijonov Abduqodir	
BEHIND THE 30% TARGET: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR WOMEN'S ACADEMIC LEADERSHIP IN UZBEK UNIVERSITIES	82
Farida Nishanova	
QURILISH SANOATIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	87
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
BALIQCILIKDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI	92
Iskandar Yunusov	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO'LLARI.....	98
Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich	



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHDAGI BANK KREDIT RISKLARINI PASAYTIRISH YO‘LLARI

Toymuxamedov Ibrohim Rixsiboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank ishi” kafedrası professori, i.f.n.

E-mail: itoymuxamedov1964@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0161-3579

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonida vujudga keladigan kredit risklari va ularni baholash hamda boshqarishning nazariy asoslari ko‘rib o‘tilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari bilan bog‘liq bank kredit risklarini pasaytirishning samarali boshqarish yo‘llarini takomillashtirishdagi muammolar tahlil qilingan va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: bank, tijorat banklari, risk, kredit riski, kredit operatsiyasi, risklarni baholash modellari, tadbirkorlik subyektlari, imtiyozli kredit, risk-menejment, diversifikatsiya, nazorat, kafolat, foiz.

Аннотация. В данной статье рассматриваются кредитные риски, возникающие в процессе кредитования банками субъектов предпринимательства, а также теоретические основы их оценки и управления. Вместе с тем проанализированы проблемы совершенствования эффективных путей управления банковскими кредитными рисками и их снижения, связанных с субъектами предпринимательства, а также представлены предложения по их устранению.

Ключевые слова: банк, коммерческие банки, риск, кредитный риск, кредитная операция, модели оценки рисков, субъекты предпринимательства, льготный кредит, риск-менеджмент, диверсификация, контроль, гарантия, процент.

Abstract. This article examines credit risks arising during the process of lending by banks to business entities, as well as the theoretical foundations for their assessment and management. At the same time, problems in improving the effective management of reducing bank credit risks associated with business entities were analyzed, and proposals for their elimination were presented.

Keywords: bank, commercial banks, risk, credit risk, credit operation, risk assessment models, business entities, preferential credit, risk management, diversification, control, guarantee, interest.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi qat‘iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biri bo‘lib, ayni paytda u belgilangan qator normativlar bo‘yicha mustahkam pozitsiyalarga ega hisoblanadi.

Ayni paytda O‘zbekiston banklarining kredit portfeli salmog‘i va tarkibida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi kunda banklarimiz tomonidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini faol qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor berildi.

Kreditlash jarayoni tijorat banklarining muhim faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, undan samarali foydalanish banklar moliyaviy barqarorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlangan jamiyatda ushbu tizimsiz barkamol iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu, o‘z navbatida, tijorat banklarining kreditlash amaliyotini doimiy tahlil qilib, takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Zamonaviy sharoitda mamlakat moliya-kredit tizimini transformatsiya qilish va unda davlat ishtirokini qisqartirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda davlat ulushiga ega banklarining qisqarishi va xususiy bank sektori ulushining oshishi bu jarayonning amaliy ifodasi bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, har qanday tadbirkorlik olamida bo‘lgani kabi, xususan, tijorat banklari faoliyatini risksiz tasavvur etish iqtisodiy jihatdan asoslanmagan yondashuv hisoblanadi.

Risklar har qanday tashkilotning moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi va ularning moliyaviy barqarorligi izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatlarni tijorat banklari faoliyatida ham inobatga olish zarur.



Ayniqsa, bank tizimidagi kredit risklarini samarali boshqarishda berilayotgan imtiyozli kreditlarning davlat kafolatiga bog'liqligini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda kredit risklarini boshqarishda banklarning kredit operatsiyalarida davlat ishtirokini maqbullashtirish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va ularning bozor samaradorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi.

Bu davlat rahbari tomonidan ta'kidlangan quyidagi vazifalar bilan hamohangdir: "Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda ichki jamg'armalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish..."

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga jami 300 trln so'mlik kredit resurslari yo'naltirilishini, shu jumladan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga 120 trln so'mlik kreditlar ajratilishini ta'minlash"da [1] mavjud bo'lgan, ya'ni bank tizimi oldida turgan ulkan vazifalarni bajarishning asosiy shartlaridan biridir.

Yuqoridagi ko'rib o'tilgan muammolarning mavjudligi va ularni hal etilish zaruriyati to'g'risida mamlakat Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev quyidagilarga to'xtalib: "Iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar tarkibida muammoli kreditlarni kamaytirish orqali bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash" [2] birlamchi vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Bugungi kunda bank faoliyatida risklarni, xususan, kredit risklarini baholash tizimini takomillashtirish, ularni boshqarishda chuqur omilli tahlil qilish mexanizmini joriy etish, banklarning kredit portfelini diversifikatsiyalash, muammoli kreditlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan choralarni ko'rish, kreditlardan kutilayotgan ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralarni shakllantirish talablarini takomillashtirish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish ko'zda tutilgan.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tijorat banklari tomonidan kreditlarni boshqarish, kredit portfeli sifatini yaxshilash, shuning natijasi o'laroq bank foydasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Har qanday iqtisodiy faoliyat doimo risk elementlarini o'z ichiga oladi. Biroq adabiyotda ushbu tushunchani aniqlashda yagona yondashuv yo'q.

Mavjud adabiyotlarda riskning xislat, xususiyat va elementlari, obyektiv va subyektiv jihatlari o'zaro munosabatlari, uning mazmunini anglash turlicha tavsiflangan.

Riskning mohiyati to'g'risidagi xilma-xil fikrlar ko'p hollarda bu hodisaning serqirraligi, amalda mavjud xo'jalik faoliyati qonuniyatlarida uning to'liq tan olinmasligi, real iqtisodiy amaliyotida va boshqaruv faoliyatida yetarlicha qo'llanilmasligi bilan sharhlanadi. Undan tashqari, risk bu bir-biriga mos kelmaydigan, ba'zida hatto qarama-qarshi real holatlar yig'indisidan iborat murakkab jarayondir.

Xo'jalik subyektlari faoliyatidagi risklar va ularga xos xususiyatlarni tadqiq qilishdan avval "risk" so'zining lug'aviy ma'nosi va risk kategoriyasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq sanaladi.

Riskning yagona ta'rifining yo'qligi ushbu hodisaning ko'p qirrali, murakkabligi va nomuvofiqligidan kelib chiqadi. "Risk" so'zi Yevropaning ko'p tillarida mavjud. Misol uchun, greklarda ridsikon so'zi mavjud bo'lib, u qoya, cho'qqi ma'nosini bildiradi. Italiyaliklar tilida "risiko" so'zi xatar, tahdid ma'nosini, risicare so'zi qoyadan mohirona o'tish ma'nosini bildiradi [3].

Vebster lug'atida risk — xavf-xatar, zarar va yo'qotish ehtimoli deb ta'riflangan [4].

Fransuzcha "risdoe" — tahlika, xavf-xatar, qo'rqinch, tik qoyadan aylanib o'tishda go'yoki tavakkal qilish mazmunini anglatadi [5].

Riskning tub mohiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "risk" so'zi ispancha-portugalcha so'zdan olingan bo'lib, "suv ostidagi qoya" degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun, balki, "risk" so'zining etimologiyasi lotin tilidagi "rescum" — "dengizdagi risk", "xavf" so'ziga borib taqaladi. "Risk — bu shunday narsaki, undan qochish lozim" [6].

Riskni iqtisodiy faoliyatda noaniqlik sifatida qabul qilish, uni amalga oshirish uchun tanlangan loyihani asoslashda foydalanish mumkin ("xarajat-foйда" mezoniga muvofiq), agar u asosli bo'lsa.

Zamonaviy sharoitda noaniqlik eng maqbul qarorni qabul qilishda yetarli ma'lumot yo'qligi yoki uning haddan tashqari ko'pligi bilan bog'liq bo'lib, bu to'g'ri yechimni tanlashda qiyinchiliklarga olib keladi. Noaniqlik tashqi muhitning to'liq ma'lumotlar oqimini qamrab olishning iloji bo'lmaganda, maqsadlarni aniq belgilash yoki harakatlarni belgilash mumkin bo'lmaganda yuzaga kelishi mumkin.

Hozirgi kunda shakllanayotgan foydaning asosiy qismi riskni samarali boshqarishdan vujudga keladi. Risk va foyda o'rtasidagi bog'liqlik imkoniyat sifatida riskni idrok etish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Foyda olish uchun risk, investitsiya qilish istagi va faol, lekin yuqori riskli moliyaviy qarorlarga olib keladi, uning maqsadi tezda ijobiy natijalarga erishishdir. Ushbu konsepsiya doirasida, ko'plab noma'lum omillar tufayli yuzaga keladigan haqiqiy va taxmin qilingan natija o'rtasida og'ish paydo bo'lgandagina risk vujudga kelishi xavfli yuqori bo'ladi.

Banklarning kredit operatsiyalarini amalga oshirishda mijozlardan olinadigan kreditga layoqatlilik to'g'risidagi ko'pgina ma'lumotlarning mavhumligi, ya'ni axborotlarni qabul qilish vaqti, masalan, aktivni sotib olish yoki sotish vaqti, to'lovlar hamda pul oqimining aylanish xususiyatlarini o'zgartirish va hokazolar vaqtinchalik noaniqlikka olib keladi.

Risk nazariyasini o'rganishda klassik maktab namoyandalari muhim hissa qo'shishgan. A. Smit risk va foyda o'rtasidagi o'zaro proporsionallik tushunchasini oydinlashtirishga harakat qilgan. A. Smitning ta'kidlashicha: "riskli holatlar yuqori bo'lgan maydonda qonun bo'yicha daromad kichik bo'ladi, bu esa, o'z navbatida, kutilayotgan daromad darajasini ko'paytirish uchun usullar salmog'i yanada ortib boradi" [7]. Shunga ko'ra, odatdagi daromadlilik darajasiga erishish har doim katta yoki kichik miqdordagi risk bilan bog'liq.

Rossiyalik professor Ye. Stoyanovanning fikricha: "risk — bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir" [8].

Risk to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirilgan holda risk — bu qo'yilgan maqsadga yetib bormaslik, noaniqlik holatda natijani belgilash; subyektiv holatda belgilangan natijani baholash deb ta'rif berish mumkin.

O'zbekistonlik mahalliy olim prof. Sh. Abdullayeva o'z tadqiqotlarida boshqa bir fikrni bildiradi. Uning fikricha: "riskni — xato, ikkilanish, noaniqlik, mavhumlik va hokazolar deb talqin qilish xalqaro amaliyotga mos kelmasligi va shu holatga yaqinlashgan holda riskni "bank riski" yoki "kredit riski" deb yuritilishi maqsadga muvofiq" [9].

Boshqa mahalliy iqtisodchi-olimlardan T. Malikov, O. Olimjonovlarning risk to'g'risidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, "Risk" atamasi o'zbek tilidagi ayrim manbalarda "tavakkalchilik", "xavf-xatar", "tahlika" va "g'ov" ma'nolarida tarjima qilinayotgan bo'lsa-da, ularning hech biri, mualliflar fikricha, "risk" atamasining asl ma'nosini bildirmaydi. "Zararlarning vujudga kelishi yoki daromadlarning ko'zda tutilgan darajadan kamroq olinishi ehtimoliga risk deyiladi" [10].

Yuqoridagilarga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, risk — bu ma'lum maqsadni ko'zlagan holda olib borilayotgan faoliyat natijasida bo'lgan ishonchsizlik, ba'zan qoniqarsiz tugashi natijasidagi yo'qotishlardan iboratdir. Risklar bank faoliyatida o'lchash mumkin bo'lgan ko'rsatkichdir va ular doim bankning bajarayotgan operatsiyalaridan olgan zarariga, yo'qotgan daromadiga teng bo'ladi [11].

Mazkur tushunchadan so'ng kredit riskining ham ma'nosini keltirish mumkin.

Ko'pgina iqtisodiy va bank ishi adabiyotlarida kredit riski deb qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya'ni kredit summasining qisman yoki to'liq va u bo'yicha foizlarning shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmasligi tushuniladi [12]. Kredit risklarining banklar uchun dolzarb muammoligi shundaki, kredit riski mavjud bo'lgan holda kreditor bankda qarz oluvchi tomonidan kredit shartnoma shartlarini, uning o'z majburiyatlarini belgilangan vaqtda bajara olish imkoniyatiga ishonchsizlik hosil bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 18-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomda (ro'yxat raqami 3427) kredit tavakkalchiligi — bu qarzdorning bank oldidagi majburiyatlari shartnoma yoki qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan muddat va shartlarda bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar (yo'qotish) ko'rish va rejalashtirilgan daromadni olmaslik ehtimoligi deb ko'rsatib o'tilgan [21].

Shuni ta'kidlash lozimki, bank amaliyotida foyda asosan berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlardan tashkil topadi. Qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining yoki kreditning asosiy summasining o'z vaqtida to'lanmasligi yoki umuman to'lanmasligi bank foydasining kamayishi oqibatida bankning kelajakdagi mablag'lari salmog'ining tushib ketishiga olib keladi.

Shuning uchun oxirgi yillarda kredit riskining nazariy asoslarini tahlil qilgan olimlar asarlarida riskning mohiyati, ularning bank faoliyatiga ta'siri va baholash usullari keng yoritila boshlandi.

Masalan, Saunders va Allen o'zining "Credit Risk Management" asarida kredit riskining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini, risklarni kamaytirish mexanizmlarini batafsil tushuntiradi [15]. Shuningdek, J. Hull "Risk Management and Financial Institutions" asarida moliyaviy institutlarda risk-menejmentni, jumladan, kredit riskini xalqaro standartlar asosida boshqarish usullarini ko'rsatib o'tgan [16]. Resti va Sironlar esa riskni baholash jarayonida zamonaviy matematik modellardan foydalanish samaradorligini tahlil qilganlar [17].

Xalqaro bank faoliyatini tartibga soluvchi Bazil qo'mitasining yillik hisobotlarida kredit riskining bank faoliyatiga ta'siri va uning oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan [18]. Xususan, IFRS 9 "Moliyaviy instrumentlar" standart hamda ECL — kutilayotgan kredit yo'qotishlarini hisoblash orqali kredit riskini aniqroq bashorat qilish imkonini beradigan tavsiyalari shular jumlasidandir [19].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqola tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil



qilishga qaratilgan bo'lib, unda nazariy, empirik va qiyosiy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan. Uslubiy yondashuvni izchil tashkil etish orqali nafaqat kredit riskining mohiyati, balki uni samarali boshqarish mexanizmlari bo'yicha qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ishlari tadqiq etilgan va ularga nisbatan o'z yondashuvlari shakllantirilgan. Mazkur holatlarga yanada yaqinroq yondashadigan bo'lsak, deyarli barcha holatlarda tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash faoliyati, ushbu kredit operatsiyalari xususidagi fikr va yondashuvlari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, biroq ular shaklan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Muallif mavjud tajribalarni o'rganish va ular orqali qiyosiy tahlil o'tkazish natijasida tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ko'rib o'tilganidek, bank faoliyati risksiz mumkin emasligidan guvohlik beradi. Shuning uchun banklar risk qilishidan oldin uni iloji boricha o'rganib, baholash va boshqarishga intilishi lozim. Uni boshqarishda esa, albatta, risk tamoyillarini, ya'ni o'z kapitali imkoniyatlaridan ortiq riskka bormaslik, risk oqibatlarini har doim hisobga olish, kam miqdordagi foyda uchun ko'p miqdordagi mablag'lar bilan risk qilish kerak emasligini hisobga olish kerak. Mazkur holatlar bevosita kredit risklariga ham taalluqlidir.

Biroq zamonaviy sharoitda O'zbekiston banklarida mavjud bo'lgan va ular tomonidan kreditga beriladigan kredit resurslarining katta qismi davlat kafolati (maqsadli jamg'armalari) ostidagi yoki imtiyozli segment asosida ajratilgan bo'lib, bu holat tijorat banklarida kredit risklarini baholashda bozor mexanizmlarining to'liq ishlashini cheklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan beriladigan imtiyozli kreditlar [23], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandleligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida beriladigan imtiyozli kreditlar [24], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratiladigan kreditlar [25], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida beriladigan imtiyozli ipoteka kreditlari [26] hamda bank kredit manbalari asosan davlat kafolatlari hisobiga shakllanadi. Shuning uchun yuqoridagi yo'nalishlarga beriladigan kreditlar bozor risklariga to'liq bo'ysunmaydi. Bu esa bank kredit risklarining notekis taqsimlanishiga, mas'ul tijorat banklarining mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatining cheklanishiga va ularning kredit bozorlarida raqobat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining iqtisodiyotdagi ulushi[20]
mlrd. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar kesimida						
	01.01.2020.	01.01.2021.	01.01.2022.	01.01.2023.	01.01.2024.	01.01.2025.	01.01.2026
YalM	529391,4	602193,0	738425,2	888341,7	1066569,0	1454573,9	1849650,0
Bank aktivlari	272726,9	366121,1	444922,5	556746,3	652157,1	769330,4	924763,1
Aktivlarning YalMga nisbati, foizda	51,5	60,8	60,3	62,7	61,1	52,9	50,0
Kredit qo'yilmalari	211580,5	276974,8	326385,6	390048,9	471405,5	533121,2	604002,2
Kredit qo'yilmalari-ning YalMga nisbati, foizda	40,0	46,0	44,2	43,9	44,2	36,6	32,7
Depozitlar	91009,0	114746,9	156189,8	216737,5	241686,6	308692,3	417258,2
Depozitlarning YalMga nisbati, foizda	17,2	19,1	21,2	24,4	22,7	21,2	22,6
Kapital	51030,7	58351,3	70917,6	79565,4	97079,2	114792,4	135339,1

Kapitalning YalMga nisbati, foizda	9,6	9,7	9,6	9,0	9,1	7,9	7,3
------------------------------------	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----

1-jadval ma'lumotlariga asosan aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklarining jami aktivlari so'nggi yillar mobaynida 3,4 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 2,85 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. 2025-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar hajmining o'sishi 70,9 trln so'mni tashkil etsa-da, mazkur yo'nalishdagi o'zgarishlar 2023-yildagiga nisbatan absolyut o'sishi 10,9 trln so'mga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i 2025-yil boshida oldingi hisobot yili boshiga nisbatan 13,3 foizga o'sishga yoki YalMga nisbatan 32,7 foizga teng bo'ldi [20].

Albatta, tijorat banklari aktivlari ichida iqtisodiyotning real sektoriga ajratilgan kreditlarning hajmi salmoqli o'rin egallagandir. Bunda ajratilgan kreditlarning 86,7 foizi ichki manbalar hisobiga to'g'ri keladi. Bu holat bank tizimi kredit qo'yilmalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan-yilga kamayish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, uning iqtisodiyot o'sishini rag'batlantirishdagi rolining oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakat banklari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning ishbilarmonlik ko'nikmalarini shakllantirish, biznes g'oyalarini moliyaviy rag'batlantirish, umuman, mustaqil hayotda o'z o'rinlarini topish va biznesini yo'lga qo'yishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga imtiyozli kreditlar ajratib kelmoqda.

2-jadval

Aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar (kredit turlari bo'yicha)[20]

mlrd. so'm

Davr	Jami	shundan:							
		Ipoteka krediti	Iste'mol krediti	shu jumladan:		Mikro-qarz	Mikro-kredit	Overdraft	Boshqa
				Avtokredit	Ta'lim krediti				
2020 y.	28466,6	9121,9	7578,2	5586,8	59,5	5836,2	3672,7	1309,7	947,9
2021 y.	40520,9	9794,2	9666,6	8497,6	266,3	9 950,8	6865,6	2575,3	1668,4
2022 y.	65288,5	14371,2	21577,4	19599,7	1771,1	16 696,1	9160,6	1849,4	1633,7
2023 y.	100234,8	16 851,0	40148,0	36557,3	2819,4	28749,6	11379,6	674,4	2432,2
2024 y.	104675,0	17097,6	18548,9	17084,5	1285,5	45839,6	17400,4	1179,8	4608,6
2025 y.	156851,1	21216,7	23152,8	21557,8	1347,0	71812,1	28455,2	856,8	11357,6

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari tomonidan aholi ehtiyojlari uchun milliy valyutada berilgan jami kreditlar 156,8 trln so'mga teng bo'lgan. Berilgan kreditlar hajmida ipoteka kreditlari 21,2 trln so'm (13,53 %)ni, iste'mol kreditlari 23,1 trln so'm (14,8 %)ni va mikroqarzarlar 71,8 trln so'm (45,8 %)ni tashkil etgan. 2025-yilda aholiga ajratilgan kreditlarning eng katta qismi, ya'ni qariyb yarmi (45,8 foizi) mikroqarzarlar hissasiga to'g'ri keldi. Yil davomida aholi jami 71,81 trln so'mlik mikroqarz olgan bo'lib, bu 2024-yildagi ko'rsatkichdan (45,84 trln so'm) ancha yuqori. Kelgusi yillarda bu tendensiya o'zgarishi kutilmoqda, chunki Markaziy bank kredit portfelida mikroqarzarlar ulushini 25 foizlik chegara bilan cheklashni rejalashtirmoqda.

Umuman olganda, respublika banklari tomonidan 2025-yil hisobot yilida iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun yo'naltirilgan jami kredit qo'yilmalari qoldig'i 604,0 trln so'mga yetgan [21].

Tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida jami 4,4 trln so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Ushbu imtiyozli kreditlar hisobidan yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan 150 mingdan ortiq loyihalarga 2,7 trln so'mlik va xotin-qizlarning 203 mingdan ortiq loyihalariga 3,2 trln so'mlik kreditlar ajratilgan [21].

2025-yil hisobot yili davomida banklar tomonidan kreditlash miqdorining o'sishi barqaror xususiyatga ega



bo'ldi. Kredit portfelining kengayishida asosiy omil milliy valyutada berilgan kreditlar bo'ldi. 2025-yilda ular hajmi 276,4 trln so'mga yetdi, bu 2024-yildagi 193,3 trln so'mga nisbatan ancha yuqoridir. Bunday kreditlarning salmoqli qismi jismoniy shaxslarga to'g'ri kelib, 156,8 trln so'mni tashkil etdi. Yakka tartibdagi tadbirkorlar esa 441,5 mlrd so'm miqdorida xorijiy valyutada kredit olgan. Bu iste'mol va ipoteka kreditlariga bo'lgan yuqori talab saqlanayotganini tasdiqlaydi.

Bunday jadal sur'atlardagi o'sishning asosiy sabablari sifatida aholi real daromadlarining 9,2 foizga oshishi hamda odamlarda kredit mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning hali to'liq qondirilmagani ko'rsatilmoqda. Shuningdek, bank tizimida imtiyozli kreditlar miqdorining oshishi va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan kreditlar hajmining yildan-yilga o'sishi hisobiga banklarda muammoli kreditlar ulushi ham oshib bormoqda.

3-jadval O'zbekistondagi tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL.) [20]

mlrd. so'm

Sana (yil boshiga)	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)			Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
01.01.2020 y.	211580,5	186630,3	24950,2	3169,1	2809,0	360,1	1,5	1,5	1,4
01.01.2021 y.	276974,8	244483,9	32490,9	5784,8	5167,6	617,2	2,1	2,1	1,9
01.01.2022 y.	326385,6	280073,6	46311,9	16974,0	15068,8	1 905,2	5,2	5,4	4,1
01.01.2023 y.	390048,9	324680,8	65368,2	13992,4	12643,3	1 349,1	3,6	3,9	2,1
01.01.2024 y.	471405,5	333298,1	138107,4	16621,4	13267,2	3 354,2	3,5	4,0	2,4
01.11.2024 y.	521025,0	362004,6	159020,4	22013,7	14961,0	7 052,7	4,2	4,1	4,4
01.12.2024 y.	525886,5	363938,6	161947,9	22446,6	14981,9	7 464,7	4,3	4,1	4,6
01.01.2025 y.	533121,2	366730,5	166390,7	21185,1	14343,8	6 841,3	4,0	3,9	4,1
01.01.2026 y.	604002,2	404468,8	199533,4	18055,3	12834,5	5220,9	3,0	3,2	2,6

2025-yil davomida O'zbekiston banklaridagi jami muammoli kreditlar 3 trln 130 mlrd so'mga kamayib, ularning jami qoldig'i qariyb 18,1 trln so'mni tashkil qildi. Kredit portfelidagi NPL ulushi yil boshidagi 3,97 foizdan yil yakuniga kelib 2,99 foizgacha pasaygan. Davlat banklarida muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 1 trln 509 mlrd so'mga kamaydi. Boshqa banklarda muammoli kreditlar hajmi yil boshiga nisbatan 1 trln 620 mlrd so'mga kamaygan. NPL ulushi esa yil boshidagi 4,11 foizdan 2,62 foizgacha pasaygan. Vaholanki, 2024-yilda banklardagi muammoli kreditlar yil boshiga nisbatan 4,5 trln so'mga ko'paygan edi [21].

Bularning barchasi O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatidagi risklar, xususan, kredit risklarini boshqarishga nisbatan minimal talablar Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 2023-yil 7-martdagi 4/11-sonli qaror bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomga muvofiq belgilanishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish usullari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Differentsiatsiya — qarz oluvchilarning kreditga qobiliyatini baholash hamda uning reytingidan kelib chiqqan holda kreditlash shartlarini belgilash;

Kredit mablag'larining diversifikatsiyasi — kreditlashning turli xil obyekt va ko'rinishlarini amaliyotga joriy etish, muddati bo'yicha kredit portfelining muvofiqligini ta'minlash;

Risklarni chegaralash — alohida tarmoqlar va bir qarz oluvchiga to'g'ri keluvchi kredit miqdorlarining limitini o'rnatish, yirik qarz oluvchilar uchun kredit miqdorining limitini belgilash va muammoli kreditlarni boshqarish;

Risklarni xedjirlash — hosilaviy moliyaviy instrumentlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

Risklarni bo'lish — yirik loyihalarni hamkorlikda kreditlash doirasida boshqa banklar bilan munosabatlar o'rnatish va boshqalar.

Kredit riskini boshqarish — bu ham jarayon, ham murakkab tizim hisoblanadi. Jarayon "maqsadli bozor" deb ataluvchi kreditlash bozorini aniqlashdan boshlanadi. U qarz majburiyatini qoplash bosqichiga qadar davom etadi.

Bundan tashqari, shuni alohida ta'kidlash lozimki, banklar kredit risklarini boshqarishda uchta asosiy

tamoyilga e'tibor berishlari kerak.

Kredit risklarini boshqarishda bankning umumiy risklarini ham e'tiborga olish zarur. Alohida kredit operatsiyalarining risk darajasini aniqlash bank miqyosidagi risklarni e'tiborga olish uchun yetarli emas. Bunga sabab, bank boshqarishi mumkin bo'lgan risklarning bir qismi alohida kelishuvlardan emas, balki bankning aktiv va passiv operatsiyalari natijasida kelib chiqadi. Bu holni passiv kredit risklarini boshqarishda e'tiborga olish zarur (foiz stavkalarining o'zgarishi).

Bankning o'z zimmasiga kredit risklarini olishi va boshqarishi alohida kredit operatsiyasi bo'yicha emas, balki bankning umumiy faoliyati miqyosida bo'ladi. Bank risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishi bankning alohida kredit operatsiyalaridan vujudga keladigan ehtimoliy risklar majmuiga qaratilgan bo'lishi kerak.

Kredit risklarini boshqarishning yo'naltirilgan va aniq ishlab chiqilgan bank metodologiyasi bank kredit faoliyatining muammoli bo'g'inlarini aniqlashga va ularning oldini olishga imkon yaratishi kerak.

Ko'rib o'tilgan holatlar va tahlillar shundan darak beradiki, tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarishda bir nechta jiddiy muammolar mavjud. Jumladan, bank kredit faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish, mamlakatdagi ichki va tashqi iqtisodiy-ijtimoiy omillarning ta'siri, tadbirkorlik faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashuvi, moliyaviy bozorlardagi holat, tadbirkorlik biznesi hamda mahsulot ishlab chiqarish sohalaridagi barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar qarz oluvchining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, moliyaviy axborotlar ko'p hollarda to'liq emas va shu kabilar banklardagi muammoli kreditlarning kam miqdorda bo'lsa-da paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mijozning to'lov qobiliyati to'g'risidagi noaniqliklar, bank tomonidan eng maqbul qarorni qabul qilishda yetarli ma'lumot yo'qligi yoki uning haddan tashqari ko'pligi banklar uchun to'g'ri yechimni tanlashda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Shu bilan birga, tashqi muhitdan to'liq ma'lumotlar oqimini qamrab olish imkoniyatining mavjud emasligi muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Muammoli kreditlar, odatda, qarz oluvchining kreditni to'lashi uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmagan hollarda yuzaga keladi. Ba'zi hollarda ular mijozning hisobida mablag'lar bo'la turib, kreditni to'lashni xohlamaganda ham yuzaga kelishi mumkin. Muammoli kreditlarning yuzaga kelish ehtimoli paydo bo'lganda banklar ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi maxsus zaxiralar shakllantiradilar. Zaxiralarning shakllantirilishi aktivlar o'z qiymatini yo'qotish gumoni tug'ilganligini, ya'ni aktivlarning qadrsizlanganligining ko'rsatilishidir. Ushbu zaxiralar savdolanmaydigan aktivlar, ya'ni aktivlarning bozor bahosi bo'yicha qarzdorga talablar qo'yish amaliy jihatdan umuman mumkin bo'lmagan holatlarda majburan shakllantiriladi.

Qarz oluvchi mijozlar uchun tashqi iqtisodiy, tarmoq va favqulodda omillar yoki xususiy, ya'ni mijoz faoliyatiga oid omillar oqibatida aktivlar qiymatining yo'qolish shubhasi yuzaga keladi. Ko'rsatilgan omillar qarz oluvchining moddiy ahvolidan yomonlashuviga salbiy ta'sir qilib, qarzdorning olingan qarzni qaytarish imkoniyatlarini pasaytiradi yoki umuman sezilarli darajada pasaytirishi mumkin. Aktivlar qiymatining yo'qolishiga, shuningdek, qarz olgan mijozning o'z majburiyatlarini bajarmasligi sabab bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, kreditlarning umumiy hajmidagi muammoli kreditlarning ulushi kredit portfeli sifatining ko'rsatkichi bo'lib, uning oshishi kelajakda bankda jiddiy yo'qotishlarga va uning likvidlik muammolariga olib keladigan asosiy omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni ta'kidlash lozimki, axborotlashtirish va moliyaviy texnologiyalarning bank faoliyatini qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lgan tobora rivojlanayotgan jamiyat kredit risklarini anglash va ularga munosabatda bo'lishga yangicha yondashuvlarni talab qiladi.

Risk — bu moliyaviy kategoriyadir. Shuning uchun riskning darajasi va qiymati moliyaviy mexanizm orqali banklar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday ta'sir bankni moliyaviy boshqarishning texnik yordami va maxsus strategiyasi bilan amalga oshiriladi. Banklarda kredit risklarini samarali boshqaruv tizimining pirovard maqsadi foyda va riskni optimal darajada bilish, maqbul nisbatda foydani qo'lga kiritishdan iboratdir.

O'zbekiston bank tizimida kredit risklarini samarali boshqarish uchun kredit operatsiyalarida davlat ishtirokini qisqartirish, ayniqsa, turli davlat jamg'armalari va maqsadli dasturlari ulushini to'g'ri yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Bu vazifalarni hal etish nafaqat bank tizimi barqarorligini ta'minlaydi, balki moliyaviy bozorlarda tijorat banklarining raqobatini kuchaytiradi, bank kredit resurslarini samarali taqsimlashga imkon yaratadi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar orqali davlat ishtirokini qisqartirish va bank tizimini liberallashtirish bo'yicha bir qancha amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan ayrim davlat ulushiga ega bo'lgan banklarning davlat ulushlari xususiy investorlarga sotildi, respublikada kredit axborot agentliklari va kredit byurolarining faoliyati takomillashtirildi va tijorat banklarida kredit risklarini baholash hamda ularni samarali boshqarishda xalqaro Bazel III, IFRS 9 standartlari joriy etilmoqda.



Xalqaro amaliyotda muammoli aktivlarni boshqarishga asosan markazlashgan va markazlashmagan ikkita yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv davlat tomonidan butun bank tizimining muammoli aktivlarini sotib olish va boshqarish bo'yicha maxsus korporatsiya tuzilishini ko'zda tutadi. Tijorat banklarining muammoli kreditlarini ajratib, chiqarib olish bunday tuzilmaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sotib olingan kreditlar korxonalar va tashkilotlarning qarzi majburiyatlari yoki aksiyalariga, yoxud bevosita hukumatning qarzi majburiyatlariga almashtiriladi. Muammoli kreditlarni tez ajratib olish imkoniyatining mavjudligi mazkur yondashuvning ustun tarafi hisoblanadi, kamchiligiga to'xtaladigan bo'lsak, alohida tuzilmani shakllantirish uchun qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi hamda restrukturizatsiya jarayoni ko'p vaqt talab etishi hisoblanadi.

Markazlashmagan usulning mohiyati bankning tarkibida yoki uning doirasidan tashqarida ishlamayotgan aktivlarni boshqarish bo'yicha tegishli tuzilmani tashkil etishdan iboratdir. Shvetsiya va Polshada shu usuldan foydalanishgan. Agar qiyinchilikni boshidan kechirayotgan banklar soni ko'p bo'lmaganda edi, markazlashmagan usuldan foydalanish samaraliroq bo'lar edi. Markazlashmagan yondashuvning ustun tomoni banklarga muammoli kreditlarni boshqarish bo'yicha yuqori malaka taqdim etadi. Bu usulning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda salbiy tomoni ham mavjud, banklar tashqi aralashuvsiz o'z faoliyatini o'zgartira olmasligidir.

Muammoli kreditlarni bank boshqaruvida qoldirishning ijobiy tomonlaridan yana biri mijoz hamda bank munosabatlarining uzviy bog'liqligidir. Bunday qaror qarzi so'ndirilishi bilan birga, kredit munosabatlarini qayta tiklashga imkon beradi. Yaponiya va Shvetsiyada muammoli kreditlarni bartaraf etishda yuqorida sanab o'tilgan ikkita usuldan ham foydalaniladi.

Muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatini tizimli ravishda olib borish maqsadida muammoli kreditlarni tasniflashni quyidagi asosiy yo'nalishlar asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi: muddati bo'yicha, sifati bo'yicha, ta'minoti bo'yicha, resurs manbai bo'yicha, kreditni berish to'g'risidagi qarorni qabul qiluvchi subyekti bo'yicha.

O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida kredit portfelini, jumladan, kredit risklarini real baholash va uni samarali boshqarish o'z ichiga shartnomaviy kafolatlar va doimiy monitoringni nazarda tutadi.

Bank kredit riskini pasaytirishning eng keng tarqalgan va samarali usuli bo'lib, kredit ta'minoti va kafolatlardan to'g'ri foydalanish hisoblanadi. Ular kreditlash jarayonlarida vujudga keladigan turli defolt holatlarida kreditning ikkilamchi to'lov manbaini ta'minlaydi.

Banklarda ilg'or moliyaviy texnologiyalardan, xususan, sun'iy intellekt va moliyaviy texnologiyalardan foydalanish kredit xavfini chuqurroq tushunish, ko'proq avtomatlashtirish va faolroq nazorat qilishni ta'minlashi mumkin.

Zamonaviy banklarda kredit risklarini boshqarish yaxlit ko'rinish va chuqur tahliliy imkoniyatlarni ta'minlaydigan integratsiyalashgan platforma tomon ketmoqda. Shuning uchun har bir bankda raqamli risk-monitoring tizimlari — kreditlarning qaytishi, qarzdorning moliyaviy holati va kredit riski darajasini real vaqt davomida kuzatuvchi platformalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2023-yil 18-aprelda "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi 3427-sonli nizom qabul qilingan. Mazkur nizomga asosan bankda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi himoyaning uch chizig'i metodiga asoslanishi hamda ushbu metodga asosan tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha majburiyatlar bankning quyidagi tarkibiy bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishi lozim [21]:

himoyaning birinchi chizig'i — bevosita bank xizmatlarini ko'rsatishga mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar. Mazkur tarkibiy bo'linmalar tavakkalchiliklarni qabul qilib oladi, shuningdek, tavakkalchiliklarning joriy boshqarilishi yuzasidan hisobotlar berib boradi;

himoyaning ikkinchi chizig'i — tavakkalchiliklarni boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linmalar hamda nazorat funksiyalari mavjud bo'lgan boshqa tarkibiy bo'linmalar. Mazkur tarkibiy bo'linmalar tavakkalchiliklarni aniqlaydi va boshqarib boradi;

himoyaning uchinchi chizig'i — ichki audit xizmati. Mazkur tarkibiy bo'linma tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini tekshiradi va baholaydi.

Bundan tashqari, banklarda paydo bo'ladigan kredit risklarini pasaytirishning samarali yo'llari bo'lib bank mijozlari hisoblangan aholining, xo'jalik subyektlarining va jismoniy shaxslarning moliyaviy savodxonligini tizimli ravishda oshirish, risklar tufayli paydo bo'lgan yo'qotishlar o'rnini qoplashning turli xil shakllarini, diversifikatsiyalash, sekyuritizatsiyalash, moliyaviy xizmatlar bozorida o'zaro kafolatlar va sug'urtalash tizimlarini yaratishlar kiradi.

Shunga qo'shimcha sifatida 2025-yil 20-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2026-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlariga kredit berish jarayonida muqobil scoring tizimi rasman joriy etildi.

Mazkur kundan e'tiboran kichik va o'rta biznes vakillarining to'lov qobiliyatini garov mulki emas, balki

real iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari asosida baholovchi muqobil skoring tizimi ishga tushdi. Ushbu mexanizm an'anaviy moliyaviy hisobotlarga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun bank kreditlaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Xususan, kredit skoring uchun asos sifatida soliq to'lovlari tarixi va muntazamligi, kommunal to'lovlar bo'yicha ma'lumotlar, tranzaksion operatsiyalar ko'rsatkichlari, tovar aylanmasi dinamikasi hamda eksport operatsiyalari hajmi va faolligi kabi ma'lumotlar ishlatiladi.

Bu ma'lumotlar davlat organlari va xususiy sektor vakillarining ma'lumotlar bazalaridan to'planadi hamda tadbirkorning to'lov qobiliyatini baholashda bevosita asos bo'lib xizmat qiladi.

Farmon bo'yicha 2026–2027-yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun jami 270 trillion so'm yo'naltirilishi belgilangan — shundan tijorat banklari orqali kichik va o'rta biznesga 250 trillion so'm kredit ajratilishi rejalashtirilgan.

Muqobil skoring tizimining ishga tushirilishi aynan mana shu kredit resurslaridan ko'proq tadbirkorning foydalana olishini ta'minlashga xizmat qiladi [22].

Ushbu tadbirlarning barchasi tijorat banklarining kredit portfeli sifati yomonlashuvining oldini olish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, banklar kredit riskini pasaytirish orqali qarz oluvchining o'z majburiyatlarini bajarmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirish, kredit risklariga moyillikni kamaytirish, bank kredit mablag'larining qaytarilish darajasini oshirish, mamlakatda pul oqimlari harakatini optimallashtirish, pirovardida esa banklar hamda mijozlarning moliyaviy barqarorligi va daromadligini saqlab qolishga asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7369703>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6811936>
3. Роуз П.С. Банковский менеджмент / пер. с англ. 2-го изд. — М.: Дело, 1997. — 768 с.
4. Валваран К.Д. Управление рисками в коммерческом банке. — Washington, D.C.: World Bank, 1997. — 303 с.
5. Иванов А.А., Олейников С.Я., Бочаров С.А. Риск-менеджмент: учебно-методический комплекс. — М.: Издательский центр ЕАОИ, 2008. — 193 с.
6. Луман Н. Понятие риска // Thesis. — 1994. — Вып. 5. — С. 150.
7. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Наука, 2016. — 1056 с.
8. Финансовый менеджмент: теория и практика / под ред. Е.С. Стояновой. — 6-е изд. — М.: Перспектива, 2010. — 656 с.
9. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. — T.: Moliya, 2002. — 304 b.
10. Malikov T., Olimjonov O. Moliyaviy menejment. — T.: Akademiya, 1999. — 193 b.
11. Тоумухамедов I.R. Bank ishi. — T., 2005. — 239 b.
12. Гурнович Т.Г., Остапенко Е.А., Молчаненко С.А. Оценка и анализ рисков: учебник / под общ. ред. Т.Г. Гурнович. — М.: КНОРУС, 2019. — 252 с.
13. Isakov J.Y. Bank risklari: o'quv qo'llanma. — T.: Iqtisod-moliya, 2017. — 100 b.
14. Saunders A., Allen L. Credit Risk Management in and out of the Financial Crisis: New Approaches to Value at Risk and Other Paradigms. — New York: Wiley Finance, 2010.
15. Hull J.C. Risk Management and Financial Institutions. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2018.
16. Resti A., Sironi A. Risk Management and Shareholders' Value in Banking: From Risk Measurement Models to Capital Allocation Policies. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2007.
17. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: Finalising post-crisis reforms. — Basel: Bank for International Settlements, 2017.
18. IFRS Foundation. IFRS 9 Financial Instruments: Guidance on Implementation. — London: IFRS Foundation, 2018.
19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot. — 2025.
20. O'zbekistonda 2025-yilda banklardagi jami muammoli kreditlar 3 trln 130 mlrd so'mga kamaydi // Bankers.uz. — URL: <https://bankers.uz/news/3005>
21. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2023-yil 7-martdagi 4/11-son qarori bilan tasdiqlangan "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizom. Ro'yxat raqami: 3427. — 2023-yil 18-aprel. <https://lex.uz/mact/-7335794>
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. — 2025-yil 20-avgust. — URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8394>
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi PQ-122-son "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-6831827>
24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7387025>
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-apreldagi PQ-149-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi



- qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6862227>
26. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 285-son “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/3682704>

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100